


# CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI


## Asosiy tarkib



## Dastlabki ma'lumotlar



Viloyat bo'yicha 2021- yilning yanvar-mart oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **3 115,0** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yil yanvar-mart oylariga nisbatan **1,8 %** ga ko'paydi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **230,3** mlrd. so'mni (2020- yil yanvar-mart oylariga nisbatan **36,1 %** kapaydi), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **2 497,8** mlrd. so'mni (**0,6 %** ga kamaydi), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **386,9** mlrd. so'mni (**2,7 %** ga o'sdi) tashkil etdi.

## Tarkibiy qism, ulushlarda



## O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda


## Uyushmagan savdo, mlrd. so'm



# HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI, mlrd. so'm

## UMUMIY MA'LUMOT


Viloyat bo'yicha 2021- yilning yanvar-mart oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **3 115,0** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yil yanvar-mart oylariga nisbatan **1,8 %** ga o'sish kuzatildi.



Viloyatimiz chakana savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlari Chiroqchi, Kasbi, G'uzor, Qarshi, Koson va Kitob tumanlarda hamda Qarshi va Shahrisabz shaharlarida kuzatildi. Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga **92,6 %** va yirik korxonalar hissasiga **7,4 %** to'g'ri keldi.

## ENG YUQORI ULUSH

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Qarshi shahri **24,1 %** ulush bilan **752,1** mlrd. so'mni tashkil etdi.



## ENG QUYYI ULUSH


Viloyatda chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni Muborak tumani **3,3 %** ulush bilan **101,8** mlrd. so'mni tashkil etdi.



**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR,  
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK  
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O‘SISH SUR‘ATLARI**

2021- yilning yanvar-mart oylariga viloyatda chakana savdo tovar aylanmasida G‘uzor, Chiroqchi Qarshi, Koson va Kitob tumanlarida tashqari qolgan barcha tumanlarda kamayish qayd etildi.

**Chakana savdo aylanmasining o‘shish sur‘atlari, foizda**





	Jami, mlrd. so‘m	2020- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so‘m	2020- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so‘m	2020- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, foizda
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>3 115,0</b>	<b>101,8</b>	<b>230,3</b>	<b>136,1</b>	<b>2 884,7</b>	<b>99,8</b>
<i>hududlar:</i>						
G‘uzor	117,7	102,2	2,6	88,4	115,1	102,6
Dehqonobod	141,0	99,2	1,2	92,2	139,8	99,3
Qamashi	189,5	101,0	2,6	93,4	186,9	101,1
Qarshi	110,9	97,8	5,0	2,4 m.	105,9	95,2
Koson	326,6	101,4	3,5	184,8	323,1	100,9
Kitob	193,4	100,5	3,0	123,0	190,4	100,2
Mirishkor	109,9	97,1	1,2	102,5	108,7	97,1
Muborak	101,9	98,9	1,6	60,5	100,3	99,9
Nishon	123,9	96,5	1,6	102,9	122,3	96,4
Kasbi	124,3	102,3	1,7	91,2	122,6	102,5
Chiroqchi	356,1	110,0	20,0	514,4	336,1	105,0
Shahrisabz	115,9	98,9	13,7	114,0	102,2	97,2
Yakkabog‘	157,0	99,1	4,3	75,5	152,7	100,0
Qarshi sh.	752,1	102,9	165,1	133,7	587,0	96,6
Shahrisabz sh.	194,8	102,7	3,2	93,4	191,6	102,9

## CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

### Yirik korxonalar

Eng yuqori ulushga  
ega hududlar, foizda





Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2020- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan **36,1 %** ga kamaydi va **230,3** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **7,4 %** ulushiga to'g'ri keladi.



### Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari

Eng yuqori ulushga  
ega hududlar, foizda



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **2 884,7** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan **0,2 %** ga kamaydi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **92,6 %** ni tashkil etdi.




**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK  
BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING  
HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI (foizda)**

Dehqonobod	0,9	99,1
Koson	1,1	98,9
Mirishkor	1,1	98,9
Nishon	1,3	98,7
Kasbi	1,3	98,7
Qamashi	1,4	98,6
Kitob	1,6	98,4
Muborak	1,6	98,4
Shahrisabz sh.	1,7	98,3
G'uzor	2,2	97,8
Yakkabog'	2,7	97,3
Qarshi	4,5	95,5
Chiroqchi	5,6	94,4
Shahrisabz	11,8	88,2
Qarshi sh.	22,0	78,0

■ Yirik korxonalar    □ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari

Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Dehqonobod (**99,1 %**), Koson (**98,9 %**), Mirishkor (**98,9 %**), Nishon (**98,7 %**) va Kasbi (**98,7 %**) tumanlar yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi **7,4 %** ni tashkil etib, eng katta ulush Qarshi shahrida (**22,0 %**), Shahrisabz (**11,8 %**) va Chiroqchi tumanlarida (**5,6 %**) kuzatilgan.



**VILOYAT BO'YICHA AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN  
CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA  
O'SISH SUR'ATLARI**

2021- yil yanvar-mart oylaridagi holatga ko'ra o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **932,1** ming so'm (2020- yil yanvar-mart oylariga nisbatan **0,2** % ga o'sdi). G'uzor, Chiroqchi, Kasbi tumanlarida hamda Qarshi va Shahrisabz shaharlaridan tashqari qolgan barcha hududlarda aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi ko'rsatkichlarida kamayish sur'atlari kuzatildi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqorisi Qarshi shahri (**2 696,7** ming so'm), Shahrisabz sh. (**1 384,6** ming so'm) va Koson (**1 121,7** ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.




	Hajm, ming so'm	2020- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, % da
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>932,1</b>	<b>100,2</b>
<i>hududlar:</i>	-	-
G'uzor	565,7	100,1
Dehqonobod	939,6	97,3
Qamashi	688,8	99,6
Qarshi	438,0	95,8
Koson	1 121,7	99,3
Kitob	724,8	99,6
Mirishkor	902,5	95,1
Muborak	1 150,9	97
Nishon	794,8	94,6
Kasbi	621,4	100,3
Chiroqchi	845,5	107,4
Shahrisabz	517,3	98,3
Yakkabog'	589,2	98,1
Qarshi sh.	2 696,7	101,6
Shahrisabz sh.	1 384,6	101,6

Viloyat bo'yicha 2021- yilning yanvar-mart oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **386,9** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yil yanvar-mart oylariga nisbatan **2,7 %** ga kamaydi. Shu jumladan, 1- bozor va 1- bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarining sotish hajmi **213,4** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **134,9 %**), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **173,5** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **79,4 %**) tashkil etdi.

**Asosiy tarkib, foizda**




Dehqon bozorlari




Chorva (parranda) bozorlari


**O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda**



**Savdo aylanmasi hajmi va ulushi**



**Eng yuqori ulushga ega hududlar**



**UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON\* VA  
CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING SAVDO  
AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2021- yilning yanvar-mart oylarida dehqon va chorva (parranda) bozorlarida, uy xo'jaligida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, parrandalar va chorva mollari savdosi bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuv, dastlabki ma'lumotlarga ko'ra jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo aylanmasi hajmi dehqon bozorlarida **213,4** mlrd. so'mni, chorva (parranda) bozorlarida **173,5** mlrd. so'mni tashkil etdi.



\* Xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YaTT)ni qo'shmagan holatda

\* Jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, chorva (parranda) mollari

	Jami, mlrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, %da	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, %da	Chorva (parranda) bozorlari, mlrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, %da
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>386,9</b>	<b>100,0</b>	<b>213,4</b>	<b>100,0</b>	<b>173,5</b>	<b>100,0</b>
<i>hududlar:</i>						
<b>G'uzor</b>	20,8	5,4	13,9	6,5	7,0	4,0
<b>Dehqonobod</b>	17,3	4,5	6,4	3,0	10,8	6,2
<b>Qamashi</b>	38,9	10,1	27,1	12,7	11,8	6,8
<b>Qarshi</b>	10,4	2,7	-	-	10,4	6,0
<b>Koson</b>	49,8	12,9	28,9	13,5	20,8	12,0
<b>Kitob</b>	25,3	6,5	14,6	6,8	10,7	6,2
<b>Mirishkor</b>	7,8	2,0	6,9	3,2	0,9	0,5
<b>Muborak</b>	23,8	6,2	4,7	2,2	19,1	11,0
<b>Nishon</b>	16,0	4,1	6,3	3,0	9,7	5,6
<b>Kasbi</b>	9,9	2,6	1,3	0,6	8,6	5,0
<b>Chiroqchi</b>	107,1	27,7	57,4	26,9	49,8	28,7
<b>Shahrisabz</b>	17,6	4,5	5,2	2,4	12,4	7,1
<b>Yakkabog'</b>	10,8	2,7	9,3	4,5	1,5	0,9
<b>Qarshi sh.</b>	22,7	5,9	22,7	10,6	-	-
<b>Shahrisabz sh.</b>	8,7	2,2	8,7	4,1	-	-



## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: DEHQON BOZORLARI



3,3  
mlrd. so'm

**Tuzlamalar**



71,4  
mlrd. so'm

**Yangi uzilgan qishloq  
xo'jaligi mahsulotlari**



5,4  
mlrd. so'm

**Quritilgan qishloq  
xo'jaligi mahsulotlari**  
(yong'oq, bodom, pista va  
boshqalarni qo'shgan holda)

21,2  
mlrd. so'm



**Non va non  
mahsulotlari**



6,2  
mlrd. so'm

**Sut va sut  
mahsulotlari**

12,4  
mlrd. so'm



**Tuxum**

40,3  
mlrd. so'm



**Don mahsulotlari (mosh,  
loviya, no'xat, guruch va  
boshqalar)**

3,9  
mlrd. so'm



**Chorva mollari va  
parrandalar uchun har xil  
yem-hashaklar**

2021- yilning yanvar-mart oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **213,4** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**71,4** mlrd. so'm) to'g'ri keldi.

4,6  
mlrd. so'm



**Ziravorlar**

43,6  
mlrd. so'm



**Tovuq go'shti**

1,1  
mlrd. so'm



**Gullar, o'simlik va nihol  
ko'chatlari (manzarali va  
qishloq xo'jaligi)**

2021- yilning yanvar-mart oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **173,5** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qora mollar savdosi **120,0** mlrd. so'mni, qo'y va echkilar **45,4** mlrd. so'mni, otlar **7,3** mlrd. so'mni, parrandalar **0,8** mlrd. so'mni tashkil etdi. Savdo aylanmasining to'liq tarkibi quyidagi ko'rsatkichda o'z aksini topgan:






**UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK  
KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK  
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O‘SISH SUR‘ATLARI**

2021- yilning yanvar-mart oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi **2,4 %** ni tashkil etib, **74,7** mlrd. so‘mga yetdi va 2020- yil yanvar-mart oylariga nisbatan **0,6 %** ga kamaydi. Bunda jami savdo aylanmasining **95,7 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.


**Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasining  
o‘sish sur‘atlari, foizda**




	Jami, mln. so‘m	2020- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mln. so‘m	2020- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mln. so‘m	2020- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, foizda
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>74 715,5</b>	<b>99,4</b>	<b>3 194,4</b>	<b>89,3</b>	<b>71 521,1</b>	<b>99,9</b>
<i>hududlar:</i>						
<b>G‘uzor</b>	5 410,8	98,3	403,6	81,0	5 007,1	100,0
<b>Dehqonobod</b>	1 117,3	99,1			1 117,3	99,1
<b>Qamashi</b>	1 556,4	99,5			1 556,4	99,5
<b>Qarshi</b>	2 444,9	100,2			2 444,9	100,2
<b>Koson</b>	1 957,2	101,3			1 957,2	101,3
<b>Kitob</b>	6 000,8	99,3			6 000,8	99,3
<b>Mirishkor</b>	705,2	98,7			705,2	98,7
<b>Muborak</b>	6 491,1	84,5	740,0	38,3	5 751,1	100,0
<b>Nishon</b>	6 886,8	101,0			6 886,8	101,0
<b>Kasbi</b>	1 414,8	99,0			1 414,8	99,0
<b>Chiroqchi</b>	3 562,1	98,2			3 562,1	98,2
<b>Shahrisabz</b>	1 254,9	100,6			1 254,9	100,6
<b>Yakkabog‘</b>	2 965,9	99,9			2 965,9	99,9
<b>Qarshi sh.</b>	30 387,2	102,8	2 050,8	178,6	28 336,5	99,7
<b>Shahrisabz sh.</b>	2 560,2	102,0		-	2 560,2	102,0

# ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

## Asosiy tarkib, foizda




Yirik korxonalar



Mikrofirma va kichik korxonalar

## O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda




Jami

Yirik korxonalar


Kichik biznes subyektlari

Viloyat bo'yicha 2021- yilning yanvar-mart oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **581,9** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yil yanvar-mart oylariga nisbatan **2,6 %** ga o'sish qayd etildi. Shu jumladan, yirik korxonalarining savdo tovar aylanmasi **136,8** mlrd. so'mni (**22,4 %** ga o'sdi), kichik biznes subyektlarining savdo tovar aylanmasi **445,1** mlrd. so'mni (**2,2 %** ga kamayish) tashkil etdi.

## Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



## Eng yuqori ulushga ega hududlar






**ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR  
VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING HAJMI VA  
O'SISH SUR'ATLARI**

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega yirik korxonalar Shahrisabz (77,5 marta) Yakkabog' (59,5 marta) tumanlarida va Qarshi shahrida (2,4 marta) kuzatildi.

Ulgurji tovar aylanmasida nisbatan yuqori o'zgarish sur'atlari Shahrisabz (173,7 %), Kasbi (149,8 %), Yakkabog' (126,4 %), tumanlarida va Qarshi (120,2 %) shahrida qayd etildi.

Ulgurji savdo aylanmasi o'sish sur'atlari, foizda



	Jami, mln. so'm	2020- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mln. so'm	2020- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, foizda	Mikrofirma va kichik korxonalar, mln. so'm	2020- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, foizda
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>581 925,3</b>	<b>102,6</b>	<b>136 792,5</b>	<b>122,4</b>	<b>445 132,8</b>	<b>97,8</b>
<i>hududlar:</i>						
G'uzor	7 195,1	89,3	-	-	7 195,1	97,2
Dehqonobod	22 938,7	96,9	-	-	22 938,7	96,9
Qamashi	8 525,7	78,7	2569,9	54,9	5 955,7	96,7
Qarshi	37 564,6	91,5	6945,1	76,9	30 619,6	95,6
Koson	52 997,8	106,4	21422,9	123,0	31 574,9	97,5
Kitob	37 489,3	107,7	4278,0		33 211,3	95,4
Mirishkor	21 024,7	53,8	977,3	5,4	20 047,4	95,7
Muborak	13 565,4	69,5	2537,6	31,4	11 027,8	96,4
Nishon	13 242,4	91,8	5038,9	87,5	8 203,5	94,6
Kasbi	11 028,4	55,2	9574,8	52,0	1 453,6	93,5
Chiroqchi	16 194,7	98,3	261,7		15 932,9	96,7
Shahrisabz	15 729,5	173,7	7026,3	77,5 m.	8 703,3	97,1
Yakkabog'	21 071,1	126,4	5588,4	59,5 m.	15 482,6	93,4
Qarshi sh.	250 193,7	120,2	70571,7	2,4 m.	179 622,0	100,3
Shahrisabz sh.	53 164,3	96,0	-	-	53 164,3	96,4